

0`quv teatri

Teatr direktori:



Usmanov Nurulla Xamidullayevich

Qabul kunlari: har kuni soat 14:00 dan 17:00 gacha

Telefon:

e-mail:

O'quv teatri haqida:

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 4 iyundagi № 1771-sloni Qaroriga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tashkil etildi va shu bilan bir qatorda institut O'quv teatri ham barpo etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatri zamonaviy talablarga javob beradigan, so'nggi texnik jihozlar bilan ta'minlangan, jahon teatrлari bilan tenglasha oladigan darajada barpo etilgan.

O'quv teatr faoliyati talabalarining, shuningdek o'qituvchi va bitiruvchilarining, maxsus mutaxassislik fanlaridan ochiq darslari, mustaqil ijodiy ishlarini sahnalashtirish, ularni (shu jumladan suratga olingan audiovizual asarlarni) o'z sahnasida yoki sayyor gastrol safarlarida keng tomoshabinlar ommasiga belgilangan tartibda pullik yoki bepul namoyish etishdan iborat. Talabalar institut davridayoq professional teatr ruhiyatini xis etib, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi.



O'quv teatr sahnasiga hozirgi zamон talablariga javob bera oladigan texnik qurilmalar о'rnatilgan. Teatr sahnasi aylanma harakatlanuvchi qurilmaga ega. Sahnaning old qismida orkestr sozandalari uchun maxsus joy tashkil etilgan. Tomoshalar zalidagi ovoz kuchaytirgich moslamalari, videoproyektor qurilmasi, chiroqlar boshqaruv qurilmasi hamda shtangentlarni boshqaruv qurilmalarining barchasi kompyuterlashtirilgan texnika asosida boshqariladi.

Teatr binosidagi barcha texnik qurilmalar Germaniyaning "Denkrayzer" Firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan.



O'quv teatrining tomoshalar zaliga 207ta tomoshabinga mo'ljallangan yumshoq o'rindiqlar joylashtirilgan. Shu bilan bir qatorda, teatrda namoyish etiladigan diplom spektakllari, konsert dasturlarini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida aktyorlar uchun qulay sharoitga ega 4 ta grimxona, 1 ta raqs xonasi, libosxona, dekoratsiya ustaxonasi, butaforiya ustaxonasi, tomoshabinlar uchun maxsus garderob, texnik xodimlar uchun ajratilgan xonalar mavjud.

O'quv teatr jamoasi ijodiy guruh, orkestr sozandalari va texnik xodimlaridan iborat.

2018 yili teatr ijodiy guruhi "Yog'du" deb nomlandi. "Yog'du" teatr jamoasi yurtimizning turli maskanlarida ijodiy safarlarda bo'lib, o'zining bir qator spektakl va konsert dasturlarini namoyish etib kelmoqda.

Prezidentimizning beshta muhim tashabbuslari asosida

2019 yil 21-28 aprel kunlarida "Yog'du" teatri jamoasi o'zining bir qator spektakl va konsert dasturlari bilan Qashqadariyo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Kitob tumani 5-mehribonlik uyida va Qashqadariyo viloyati, Shaxrisabz shahri, Kitob tumanlarida o'zining ijodiy safari bilan tomoshabinlarning olqishlariga sozov vor bo'ldi. Shuningdek 2019 yil may oyining 21-25 sanalarida Toshkent viloyati, Parkent tumanining bir qator maktabalarida ham o'zining sahna ko'rinishlari va konsert dasturlari bilan nomoyish etib keldi.

